



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 31-oktabr

229-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi "Budget Kodeksi"ning 119,120,126-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli hamda Oliy Majlis Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining, Toshkent shahri shahar budgetining, tumanlar va shaharlar budgetlarining qo'shimcha manbaalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi KQ-5-V-sonli qarorlariga muvofiq, Farg'ona tumani mahalliy budgetining iqtisod bo'lgan mablag'larini maqbullashtirish hisobiga shakllangan mablag'lardan foydalanish yuzasidan tuman hokimligi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli qaroriga, Budget kodeksining 120-moddasi 4-qismiga muvofiq maqbullashtirishdan bo'shab qolgan 347,0 mln.so'm miqdoridagi mablag' hisobidan 2025-yil noyabr oyida moliyalashtiriladigan ish haqi va avans to'lovlari, shuningdek, ijtimoiy soliq to'lovi xarajatlari uchun tuman hokimligiga 80,0 mln.so'm, oila va xotin-qizlar bo'limiga 30,0 mln.so'm hamda 2-sonli sport maktabiga 237,0 mln.so'm, jami 347,0 (uch yuz qirq yetti) mln.so'm ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, mablag' ajratilgan muassasalar bo'yicha tuzilgan xarajatlar smetalarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (A.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga hamda mablag' ajratilgan muassasalar rahbarlariga mazkur mablag'dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag' haqidagi hisobotni navbatdagi sessiya muhokamasiga kiritilishini nazoratga olsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T